

FAKULTETLARDA KURS KOORDINATORLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH TO'G'RSIDA NIZOM

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 60-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-oktabrdagi 656-sonli qarori, Universitetning Kuzatuv va Akademik kengashining qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, universitetning tegishli fakultetlar tarkibidagi kurs koordinatori lavozimining kasbiy, akademik va ilmiy yo'nalishlardagi faoliyatini belgilaydi. Kurs koordinatori talabalar, akademik bo'limlar va universitet ma'muriyati o'rtasidagi muhim bog'lovchi vazifasini bajaradi. Ushbu Nizom ularning faoliyati uchun huquqiy va tashkiliy asoslarni belgilaydi, malaka talablarini o'rnatadi, shuningdek, ularning vazifalari, huquqlari va javobgarlik mexanizmlarini aniq ko'rsatib beradi.

1. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomning asosiy maqsadi fakultetlardagi kurs koordinatorlari faoliyatining muhim tamoyillari, tuzilishi va funksional asoslarini belgilashdir. Ushbu lavozim samarali muvofiqlashtirish, nazorat va maslahat berish vazifalari orqali talabalarning akademik, ilmiy va ma'naviy rivojlanishi uchun yagona yondashuvni ta'minlashga qaratilgan.

2. Kurs koordinatorlarining faoliyati quyidagi huquqiy va institutsional hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

- Universitet Ustavi;
- Oliy ta'lim sohasidagi milliy qonunchilik;

- Universitet rahbariyati tomonidan tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlar va ma'muriy buyruqlar;
- Ushbu Nizom hamda Kuzatuv va Akademik kengash tomonidan ma'qullangan boshqa hujjatlar.

Mazkur Nizom barcha fakultetlardagi kurs koordinatorlarining huquq va majburiyatlarini belgilovchi majburiy ichki hujjat sifatida xizmat qiladi.

3. Kurs koordinatorlari o'z faoliyatlarini qonuniylik, halollik, shaffoflik, mas'uliyat hamda talabaga yo'naltirilganlik tamoyillari asosida amalga oshiradilar. Ular o'z ish faoliyatida inson qadr-qimmatini hurmat qilish, tenglik va akademik erkinlikni ta'minlash, shuningdek, oliy ta'lim muassasasining axloqiy me'yorlari va qadriyatlarini ifoda etishlari zarur.

Kurs koordinatorlari akademik o'quv jarayonlarning muvofiqlashtiruvchi sifatida faoliyat yuritib, talabalarning akademik hamda ilmiy salohiyatini rivojlantirish jarayonida har tomonlama metodik, tashkiliy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydilar.

2. Kurs koordinatori maqomi va funksional bo'ysunish tartibi

1. Kurs koordinatori Universitetda yuqori malakali mutaxassislarni ishga qabul qilish komissiyasi hamda tegishli fakultet dekanining tavsiyasi asosida universitet rektori tomonidan lavozimga tayinlanadi va undan ozod etiladi. Mazkur lavozimga tayinlash nomzodning ilmiy salohiyati, kasbiy malakasi, boshqaruv ko'nikmalari hamda axloqiy-me'yoriy fazilatlarini chuqur tahlil qilingan holda, belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Faoliyat samaradorligi yetarli darajada ta'minlanmagan, mehnat intizomi buzilgan yoki ushbu Nizomda nazarda tutilgan axloqiy-me'yoriy talablar buzilgan taqdirda, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida lavozimdan chetlashtirish choralari qo'llaniladi.

2. Kurs koordinatori fakultet dekanati tarkibida faoliyat yurituvchi mas'ul xodim hisoblanadi. U o'z faoliyatini dekanning bevosita rahbarligi va nazorati ostida amalga oshiradi hamda ma'muriy jihatdan to'g'ridan-to'g'ri fakultet dekaniga bo'ysunadi.

Universitetda yo'nalishlar bo'yicha fakultet dekani:

- Kurs koordinatori ishini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi, shuningdek ularning ijro-intizomiga rioya qilishi va ish faoliyatini o'z vaqtida tashkil etishini nazoratga oladi;

- kurs koordinatori faoliyat tajribasini tizimli ravishda o'rganadi, tahlil asosida umumlashtiradi hamda ilg'or pedagogik tajriba va samarali ish uslublarini ommalashtiradi;

- har chorak yakunida kurs koordinatorlari faoliyati samaradorligini baholash asosida tahliliy hisobotlar tayyorlaydi, ularning natijalarini tahlil qilib, taklif va tavsiyalarni umumlashtiradi hamda rahbariyatga taqdim etadi;

- fakultet dekani kurs koordinatorining ijro intizomini, ish vaqtini hisoblash jadvali (avans va tabel) hamda samardorlik ko'rsatkichlarini (KPI) belgilash va baholashni amalga oshiradi. Shuningdek, KPI ko'rsatkichlarida yuqori natijalariga erishgan kurs koordinatorlarini rag'batlantirish, ularning malaka oshirish va stajirovka jarayonlarini tashkil etish bo'yicha belgilangan me'yoriy hujjatlarga muvofiq rahbariyatga takliflar kiritadi.

3. Kurs koordinatorlari bakalavriat bosqichining kunduzgi ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar bilan ishlaydi. Ularning nazoratiga birlashtirilgan talabalarning umumiy soni amaldagi me'yorlarga muvofiq ravishda, odatda, 200–300 nafarni tashkil etadi hamda ushbu miqdor ta'lim bosqichidan (kursdan) qat'iy nazar akademik guruhlar shaklida kurs koordinatoriga taqsimlanadi.

4. Kurs koordinatorlari o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarish hamda taqdim etiladigan ma'lumot va hisobotlarning to'liqligi, aniqligi va ishonchliligi uchun shaxsan javobgardirlar. Ularning faoliyati muntazam ravishda fakultet dekanati va universitet ma'muriyati tomonidan baholab boriladi. Belgilangan vazifalarning lozim darajada bajarilmasligi holatlarida esa amaldagi ichki nizom va me'yoriy hujjatlar asosida intizomiy javobgarlik choralari qo'llashga sabab bo'ladi.

5. Kurs koordinatori lavozimi akademik sohada yetarli kasbiy malakaga, ilmiy salohiyatga hamda yuksak ma'naviy-axloqiy nufuz va obro'-e'tiborga ega bo'lgan shaxslarga ustuvorlik beriladi.

3. Kurs koordinatorlarining asosiy vazifalari

1. Kurs koordinatorlarining vazifalari talabalarni rivojlantirishning akademik, ilmiy, ma'naviy va tashkiliy jihatlarini qamrab oladi.

Jumladan, kurs koordinatori:

- talabalarning universitet ta'lim muhitiga samarali moslashuvini ta'minlash, ularning axborot-resurslari va boshqa manbaalardan oqilona hamda samarali foydalanishiga ko'maklashish, shuningdek, shaxsiy va kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yakka tartibdagi hamda jamoaviy

maslahatlar berib borish, shu bilan birga, talabalarni oliy ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalari, odob-axloq kodeksi hamda boshqa me'yoriy ichki hujjatlar bilan muntazam tanishtirish;

- talabalarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish;

- bag'rikenglik, qonun ustuvorligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, zararli g'oyaviy va axloqiy ta'sirlarga qarshi tura oladigan, hayotga nisbatan mustahkam irodaga hamda barqaror e'tiqod va qarashlarga ega shaxsni shakllantirish;

- nogironligi bo'lgan, yetim yoki ota-ona qaramog'idan mahrum etilgan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, universitetning akademik, ilmiy hamda ma'naviy hayotida faol ishtirok etayotgan talabalarni rag'batlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va tegishli fakultet dekaniga taqdim etish;

- talabalarining yashash manzillari (talabalar turar joylari, ijaradagi yoki xususiy xonadonlar hamda qarindoshlari bilan istiqomat qiluvchi holatlar) bo'yicha muntazam monitoringni tashkil etish, ularning turmush sharoitlari va ijtimoiy (oilaviy) ahvolini tizimli tahlil qilish, aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha asoslantirilgan takliflarni fakultet dekaniga kiritish orqali talabalarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash hamda ularning barqaror ilmiy-akademik faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

- talabalarining ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish, ularni talabaning o'quv jarayonidagi yutuqlari, tarbiyaviy faoliyati va ijtimoiy-maishiy holati to'g'risida muntazam axborot bilan ta'minlab borish orqali ta'lim-tarbiya jarayoni bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash;

- belgilangan o'quv yili davomida talabalarining barcha fanlar bo'yicha davomati, o'zlashtirish darajasi va akademik ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish hamda ularning o'quv faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida tegishli nazorat va tahlil ishlarini amalga oshirish;

- dars mashg'ulotlarini o'zlashtirish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelayotgan talabalarga o'z vaqtida metodik yordam ko'rsatish, ularning o'quv faoliyatini samarali yo'lga qo'yish maqsadida professor-o'qituvchilar hamda kafedra mudirlari bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish.

- dars jadvallarini shakllantirish, baholash jarayonlarini vaqtida qo'yilishi hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik rejalarini ishlab chiqishda ko'maklashish hamda ularni amaliyotga joriy etish jarayonida faol ishtirok etish;

- talabalarga tanlov fanlarini oqilona tanlashda, o'quv jarayoniga doir tartib-qoidalar, baholash mezonlari va akademik talablarni to'g'ri anglash hamda ularga rioya etish borasida zarur maslahat va uslubiy ko'rsatmalar berish;

- kurs koordinatori professor-o'qituvchilar hamda tegishli tarkibiy bo'linmalar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yib, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning akademik ko'rsatkichlarini yaxshilash va akademik halollik tamoyillariga rioya etilishini ta'minlash;

- fakultet miqyosida ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar hamda innovatsion seminar-treninglarni samarali tashkil etish va ularning sifat darajasini oshirishga ko'maklashish;

- o'quv jarayoniga ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarini samarali targ'ib qilish maqsadida talabalar va ilmiy rahbarlar o'rtasidagi ilmiy hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish hamda ularning tadqiqot faoliyatini tizimli yo'naltirishni ta'minlash;

- o'ziga birlashtirilgan talabalarning murojaatlari, shikoyat va e'tirozlarini dastlabki bosqichda ko'rib chiqish, vakolatlari doirasida o'rganish va tegishli tartibda hal qilish, shuningdek majburiyatlaridan tashqari bo'lgan holatlarda talabalar murojaatlarini tegishli fakultet dekaniga yo'naltirish;

- o'quv yili yakunlari bo'yicha talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash jarayonini tashkil etish hamda Ijtimoiy faollikni aniqlash bo'yicha ko'rsatkichlarni baholashda bevosita ishtirok etish;

- Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan (belgilangan toifadagi talabalar), shuningdek Universitetning ilmiy-ijtimoiy hayotida faol bo'lgan talabalar bilan ishlash, ularni har tomonlama rag'batlantirish va ko'maklashish maqsadida Universitet Yoshlar ishlari ofisi bilan hamkorlikda faoliyat olib borish;

- ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari hamda tegishli sohalarining innovatsion rivojlanishiga hissa qo'shuvchi talabalarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning ilmiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda ko'maklashish hisoblanadi.

4. Shu bilan bir qatorda, kurs koordinatori talabalar, fakultet kafedralari hamda dekanat o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlovchi bo'g'in sifatida faoliyat yuritadi. Uning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Talabalar guruhlari bilan muntazam ravishda ilmiy-akademik, tarbiyaviy va maslahat uchrashuvlarini tashkil etish;

- talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha tahliliy hisobotlar tayyorlab, ularni belgilangan tartibda dekan va tegishli bo'linmalarga taqdim etish;

- ta'lim muhiti va tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishga qaratilgan darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etish;

Fakultet kengashi va boshqa kollegial organlar ishida ishtirok etib, talabalar bilan bog'liq masalalarda asoslantirilgan taklif va xulosalar kiritish.

5. Kurs koordinatorlari talabalarning o'zlashtirishi, davomati, intizomiy masalalari va yutuqlari haqida tegishli hujjatlarni yuritadilar. Barcha qaydlar muntazam ravishda yangilanib turilishi va universitetning ma'lumotlarni ishonchli saqlash siyosatiga muvofiq yuritilishi shart.

4. Kurs koordinatorlarining huquq va majburiyatlari

1. Kurs koordinatorlari o'z vazifalarini bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

- Davomat va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tizimli monitoring qilish maqsadida o'ziga birlashtirilgan talabalarning dars mashg'ulotlarida ishtirokini muntazam kuzatib borish hamda tegishli ta'lim platformalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish hamda professor-o'qituvchilar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha fakultet dekani orqali takliflar kiritish;

- fakultet, kafedra hamda o'quv jarayoniga oid masalalarni muhokama qiluvchi ichki yig'ilishlar va ishchi guruhlar faoliyatida faol ishtirok etish;

- talabalarning faoliyati va xulq-atvoriga asoslanib, ularni rag'batlantirish yoki intizomiy choralar qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar berish;

- talabalarning bilim darajasi va ularning baholanish jarayonini muntazam monitoring qilib, baholashning shaffofligi va adolatliligini ta'minlash maqsadida kuzatuv olib borish;

- Universitet tomonidan taqdim etiladigan uzluksiz kasbiy rivojlanish, malaka oshirish va qayta tayyorlov dasturlarida muntazam ishtirok etishi lozim.

Ularning huquqlari Universitetning ichki nizomlariga muvofiq himoyalangan bo'lib, o'z vazifalarini bajarishda javobgarlik va adolatlilikni ta'minlaydi.

2. Kurs koordinatorlarining majburiyatlari:

- Talabalarning odob-axloq kodeksi hamda oliy ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga rioya etishini muntazam va tizimli nazorat qilib borish;

- talabalarning sha'ni, qadr-qimmatini va obro'sini hurmat qilish, ularning shaxsiy ma'lumotlarini amaldagi qonunchilikka muvofiq himoya qilish hamda roziligisiz oshkor etmaslik;

- talabalar hamda ularning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni oliy ta'lim muassasasining nizomi, ichki tartib-qoidalari, odob-axloq kodeksi va ta'lim jarayonini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan tartibda tanishtirish hamda ularning mazmuni bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish;

- talabalar bilan bog'liq favqulodda yoki muammoli holatlar vujudga kelganda, bu haqda darhol fakultet dekani hamda tegishli mas'ul shaxslarga belgilangan tartibda xabar berish va zarur choralarni ko'rish bo'yicha tashabbus bildirish.

Kurs koordinatorlari zimmasiga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

5. Kurs koordinatorlariga qo'yiladigan malaka talablari

1. Kurs koordinatori:

- Ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari hamda ularning mazmun va talablari to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lishi;

- Talabalar bilan ishlash jarayonining mohiyatini chuqur anglagan, ilmiy-akademik soha bo'yicha yetarli nazariy va amaliy bilim ko'nikmalarga ega bo'lishi hamda sohaga oid zamonaviy yangilik va tendensiyalardan muntazam xabardor bo'lishi;

- Axborotni tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish, tahliliy ma'lumotlarni sifatli tayyorlash, asosli qarorlar qabul qilish hamda o'z fikrini yozma va og'zaki shaklda aniq, lo'nda va mantiqan izchil ifoda eta olish qobiliyatiga ega bo'lishi'

- Talabalarning Universitetdagi o'quv va ijtimoiy faoliyatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llay olish kasbiy kompetensiyasiga ega bo'lishi lozim.

2. Kurs koordinatorlari lavozimiga quyidagi kasbiy va malaka talablari belgilab qo'yilgan:

- tegishli fakultet tarkibida faoliyat yuritish istagida bo'lgan nomzodlar ayni shu mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lishi lozim;

- tegishli ilmiy sohada kamida magistrlik darajasi (yuqori malakaga ega, turli yo'nalishlarda yutuqlarga erishgan, shuningdek ayni vaqtda magistratura bosqichida tahsil olayotgan shaxslar bundan mustasno) yoki unga tenglashtiriladigan malakaga ega bo'lishi lozim (ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega shaxslarga afzalliklar beriladi);

- nomzod davlat tili (o'zbek tili), rus tili, ingliz tilida yuqori muloqot ko'nikmasi hamda tushunish darajasiga ega bo'lishi lozim, shuningdek boshqa xorijiy chet tillardan birini o'zlashtirganlik uchun ustuvorlik beriladi;

- amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tarzda javobgarlikka tortilmagan, shuningdek, ta'lim faoliyatini amalga oshirish huquqidan mahrum etilmagan bo'lishi;

- zarur pedagogik hamda psixologik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, shuningdek, oliy ta'lim tizimida, o'qitish yoki akademik boshqaruv yo'nalishlarida yetarli amaliy tajribaga ega bo'lgan nomzodlarga ustuvorlik beriladi;

- ta'lim jarayoni, talabalar bilan ishlash boshqaruvi hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida chuqur nazariy va amaliy bilimga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, kurs koordinatori uchun quyidagi kasbiy va shaxsiy kompetensiyalar talab etiladi:

- samarali boshqaruv, tahliliy fikrlash va kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lish;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va baholash tizimlarini puxta bilish;

- raqamli ta'lim boshqaruvi va akademik hujjatlarni yuritish vositalaridan foydalanish malakasi;

- akademik halollik, adolatlilik va etik me'yorlarga qat'iy rioya etish;

- talabalarning akademik va axloqiy rivojlanishini maqsadli yo'naltirish;

- shaxsiy halollik, mas'uliyat va oliy ta'lim muassasasining institutsional maqsadlariga sadoqat.

- ishga kirish istagida bo'lgan nomzodlar Universitetning rasmiy veb-sayti (uwed.uz) orqali kurs koordinatorligi lavozimiga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishishlari, shuningdek, Universitetda yuqori malakali mutaxassislarni ishga qabul qilish bo'yicha e'lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Universitetning Inson resurslari ofisiga ariza bilan murojaat qilishlari mumkin.

6. Kurs koordinatori faoliyati samaradorligini baholash mexanizmlari

1. Kurs koordinatorlarining faoliyati har o'quv yilida belgilangan ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan keng qamrovli baholash tizimi (KPI) orqali baholanadi (1-ilova).

Shuningdek, quyidagi shakllarda ham ularning faoliyat samaradorligi o'rganib boriladi:

- O'ziga birlashtirilgan talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari va ularning akademik natijalari;

- darsdan tashqari tashkil etilgan ilmiy-akademik tashabbuslar va mustaqil ta'lim mashg'ulotlariga qo'shgan hissasi;

- Talabalar, professor-o'qituvchilar va ma'muriy bo'linmalarning fikr-mulohazalari (so'rovnoma/feedback asosida);

- Axloqiy me'yorga rioya qilish, o'z funksional majburiyatlariga vijdonan yondashish va tegishli hujjatlarni sifatli yuritish.

Natijalar asosida koordinatorlarga tashakkurnomalar, mukofotlar yoki lavozimini oshirish bo'yicha rag'batlantirish berilishi mumkin. Muntazam tarzda past natijalar ko'rsatish qayta tayyorlash, boshqa lavozimga o'tkazish yoki ishdan bo'shatishga asos bo'ladi.

7. Yakuniy qoidalar

1. Ushbu Nizom qoidalari qo'llanishi bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

2. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

3. Mazkur Nizom Universitet Akademik kengashi tomonidan ma'qullangach kuchga kiradi. Har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ichki me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqishning belgilangan tartibiga muvofiq kiritiladi.

Kurs koordinatorlari faoliyati samaradorligini baholash (KPI) TARTIBI

Kurs koordinatorlari faoliyati samaradorligini baholash (KPI)ning asosiy mezonlari sifatida quyidagilar hisobga olinadi va jami maksimal 125 ball to'plash mumkin:

- **Boshqaruv faoliyati bo'yicha;**
- **Tashkiliy-funksional majburiyatlar bo'yicha;**
- **Ilmiy-akademik yo'nalish bo'yicha;**
- **Ma'naviy-ma'rifiy chora tadbirlar yo'nalishi bo'yicha;**
- **Ijro intizomi qoidalarining buzilishi.**

Baholash jarayonlari har chorak bo'yicha (har uch oyda) Moodle elektron tizimiga yuklangan hujjatlarni o'rganish asnosida amalga oshiriladi.

Kurs koordinatorlari baholash mezonlari bo'yicha tegishli ma'lumotlar va hujjatlarning to'g'ri hamda asosli tarzda taqdim etilishi uchun javobgar hisoblanadi. Shuningdek, tegishli tartibda taqdim etilmagan hamda elektron platformaga muvofiqligi bo'yicha yuklanmagan hujjatlar va ma'lumotlar ko'rib chiqilmasligi yoxud baholanmasligi mumkin.

Jadvaldagi barcha bandlar bo'yicha dastlab Tegishli fakultet dekanlari, Oliy ta'limdan keyingi ta'lim ofisi, Besh muhim tashabbus markazi o'zlariga taalluqli bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha baholab chiqadilar hamda Akademik sifatni ta'minlash va standartlashtirish ofisi tomonidan 3 ish kuni davomida umumlashtirilib, Universitet rahbariyatiga taqdim etiladi.

I. Boshqaruv faoliyati bo'yicha 40 ball:

1. Talabalar o'rtasida o'quv yilining har bir semestr yakunlari bo'yicha o'tkaziladigan onlayn so'rovnoma (feedback) natijalari asosida kurs koordinatori faoliyati baholanadi. Ushbu baholash mezonlariga ko'ra (*so'rovnoma kurs koordinatori va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, talabalar murojaatlarini ko'rib chiqish jarayoni hamda fanlardan kelib chiqadigan o'zlashtirishdagi kamchiliklarni bartaraf etishda ko'rsatilayotgan muntazam ko'mak darajasini aniqlashga qaratilgan*), agar talabalar tomonidan bildirilgan ijobiy fikrlar ulushi:

- 90 foizdan yuqori bo'lsa, kurs koordinatoriga **10 ball** beriladi;

- 70 foizdan ortiq bo'lsa **7 ball**;

- 60 foizdan yuqori bo'lsa **5 ball** bilan baholanadi.

Agar ijobiy fikrlar ulushi 59 foiz va undan past bo'lsa, kurs koordinatori faoliyati uchun ball berilmaydi.

Ushbu band bo'yicha Talabalarni qabul qilish va rasmiylashtirish ofisi hamda Akademik sifatni ta'minlash va standartlashtirish ofisi tomonidan baholanadi.

2. Talabalar murojaatlarini ko'rib chiqish va hal etish — maksimal 10 ball.

Talabalar murojaatlari Kurs koordinatori tomonidan yozma shaklda, elektron platforma orqali yoki belgilangan jurnal asosida qabul qilinadi hamda belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi. Kurs koordinatori murojaatlarni qabul qilingan kundan boshlab o'rganadi, vakolatlari doirasida ularni hal etadi yoki vakolatiga kirmaydigan holatlar yuzasidan fakultet dekaniga rasmiy axborot xati (bildirishnoma) kiritadi.

Har haftaning birinchi ish kunida talabalar murojaatlarini qabul qilish vaqti va joyi bo'yicha e'lon berilishi shart. Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Kurs koordinatori tomonidan yozma bayonnoma tuziladi va fakultet dekaniga taqdim etiladi.

Murojaatlar bo'yicha tuzilgan barcha hujjatlar fakultet dekani tomonidan ko'rib chiqiladi va imzo bilan tasdiqlanadi. Dekan imzosi bilan tasdiqlanmagan hujjatlar KPI baholashda hisobga olinmaydi.

Baholash mezonlari:

Murojaat belgilangan tartibda qabul qilingan, to'liq o'rganilgan va asosli hal etilgan, talabaga aniq javob berilgan — **3 ball**;

Murojaat qisman hal etilgan yoki qo'shimcha choralar belgilangan — **2 ball**;

Murojaat ko'rib chiqilmagan yoki rasmiy javob berilmagan — **0 ball**;

Izoh: Murojaatlar bilan ishlash jarayonida hujjatlarni soxtalashtirish, soxta murojaatlar shakllantirish yoki ma'lumotlarni qo'shib yozish holatlari aniqlangan taqdirda, amaldagi ichki me'yoriy hujjatlarga muvofiq intizomiy javobgarlik choralari qo'llaniladi.

Ushbu band bo'yicha tegishli fakultet dekani tomonidan baholanadi.

3. Talabalarning akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlarini monitoring qilish — maksimal 10 ball

Kurs koordinatori o'ziga biriktirilgan talabalarning akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlarini semestr davomida muntazam monitoring qiladi,

aniqlangan muammolar bo'yicha tegishli choralarni ko'radi hamda akademik jarayonning barqarorligini ta'minlashga mas'ul hisoblanadi.

Har bir semestr yakunida Kurs koordinatori fanlarni o'zlashtirmagan yoki past akademik natija ko'rsatgan talabalar bo'yicha alohida ro'yxat hamda qisqa tahliliy ma'lumot shakllantiradi va ularni belgilangan tartibda fakultet dekaniga taqdim etadi.

Kurs koordinatoriga biriktirilgan guruh(lar) talabalari umumiy akademik o'zlashtirish darajasi semestr yakuniy natijalari asosida quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

80–100 foiz talaba fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan bo'lsa — **10 ball**;

70–79 foiz talaba fanlarni o'zlashtirgan bo'lsa — **8 ball**;

56–69 foiz talaba fanlarni o'zlashtirgan bo'lsa — **5 ball**;

55 foiz va undan kam talaba fanlarni o'zlashtirgan bo'lsa — **0 ball**.

Ushbu mezonlar asosida shakllantirilgan ma'lumotlar rasmiy ta'lim platformalari va dekanat hujjatlari asosida fakultet dekani tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi hamda Kurs koordinatori faoliyatini KPI bo'yicha baholashda asos sifatida qabul qilinadi.

Ushbu band bo'yicha baholash Akademik sifatni ta'minlash va standartlashtirish ofisi tomonidan baholanadi.

4. Respublika fan olimpiadalari va nufuzli xalqaro tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan, shuningdek tegishli mukofot (diplom)larga sazovor bo'lgan talabalar uchun kurs koordinatori quyidagicha baholanadi:

- talabaning Respublika fan olimpiadalarida g'oliblikka erishganligi uchun — **10 ball**;

- Respublika bosqichidagi turli tanlovlar va sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun esa — **5 ball** beriladi (*sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan talabalar soni 2 nafardan ziyod bo'lsa, **10 ball** ko'rinishida baholanishi mumkin*).

Ushbu band bo'yicha baholash tegishli fakultet dekani tomonidan amalga oshiriladi. Kurs koordinatori esa talabalar tomonidan qo'lga kiritilgan natijalarni tasdiqlovchi diplom, sertifikat va boshqa asoslantiruvchi hujjatlarni belgilangan tartibda taqdim etishi lozim. Talaba tanlovlarda ishtirok etgan bo'lsa-da, mazkur hujjatlar tegishli tartibda taqdim etilmagan hollarda baholash amalga oshirilmaydi.

Ushbu band bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan ball **10 ball**ni tashkil etadi.

Baholash jarayonlari bir kalendar yil doirasida amalga oshiriladi, ya'ni yanvar oyidan keyingi yilning yanvar oyigacha bo'lgan muddatni qamrab oladi.

Ushbu band bo'yicha tegishli fakultet dekani tomonidan baholanadi.

II. Tashkiliy-funksional majburiyatlar bo'yicha 45 ball.

5. To'lov-shartnoma hamda qayta o'qish (trimester) to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi 15 ball ko'rinishida baholanadi.

5.1. To'lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalar tomonidan to'lovlarni o'z vaqtida to'lab borilishini nazoratga olish - 10 ball:

Bunda kurs koordinatorining o'ziga biriktirilgan, shuningdek to'lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalar kesimidan kelib chiqib, o'quv yilining har choragida to'lov-shartnomaning belgilangan miqdorini o'z vaqtida (qonunchilikka muvofiq, tasdiqlangan muddatlarda) to'lab borilishini nazoratga olishi lozim.

Agar belgilangan to'lov-shartnoma miqdorini to'lashda talabalar ulushi:

- 90 foizdan yuqori bo'lsa, kurs koordinatoriga **10 ball** beriladi;
- 70 foizdan ortiq bo'lsa **7 ball**;
- 60 foizdan yuqori bo'lsa **5 ball** bilan baholanadi.

Agar talabalar ulushi 59 foiz va undan past bo'lsa, kurs koordinatori faoliyati uchun ushbu band bo'yicha ball berilmaydi.

Izoh: ushbu band bo'yicha kurs koordinatori tomonidan fakultet dekaniga har o'quv choragida to'lov-shartnomaning belgilangan miqdorini o'z vaqtida to'lamay kelayotgan talabalar ro'yxati taqdim etilishi hamda ushbu toifadagi talabalarni muntazam nazoratga olishi, shuningdek to'lov-shartnomani amalga oshirgan talabalarga oid qaydlar va to'lov cheklari asoslovchi hujjat sifatida qabul qilinadi.

5.2. Qayta o'qish (trimester) jarayonini nazorat qilish - 5 ball.

Mazkur ko'rsatkich Kurs koordinatorining o'ziga biriktirilgan talabalar orasida qayta o'qish (trimester) asosida ta'lim oluvchi talabalarni aniqlash, ushbu jarayonni muvofiqlashtirish hamda belgilangan tartibda moliyaviy majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish bo'yicha faoliyatini baholashga qaratilgan.

Kurs koordinatori akademik qarzdorligi mavjud bo'lgan hamda qayta o'qish (trimester) jarayoniga jalb etilishi belgilangan talabalarni aniqlaydi, ularning ro'yxatini belgilangan tartibda shakllantiradi va tegishli bo'linmalarga taqdim etadi. Ro'yxatlar o'quv jarayonidagi o'zgarishlardan kelib chiqib o'z vaqtida yangilanib borilishi shart.

Qayta o'qish (trimester) uchun to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilish — 5 ballgacha baholanadi.

Kurs koordinatori qayta o'qish (trimester) jarayonida ishtirok etuvchi talabalar tomonidan belgilangan to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qiladi, to'lovni kechiktirayotgan talabalar bilan tushuntirish ishlari olib

boradi hamda zarur hollarda bu haqda fakultet dekaniga yoki tegishli mas'ul bo'linmalarga axborot beradi.

Yuqoridagi bandni baholash uchun talabalarning to'lov holati bo'yicha ma'lumot, ogohlantirish qaydlari asoslovchi hujjatlar hisoblanadi.

Ushbu band bo'yicha tegishli fakultet dekani hamda Talabalarni qabul qilish va rasmiylashtirish ofisi tomonidan baholanadi.

6. Ota-onalar bilan ishlash tizimi – 10 ball

1). Ota-onalar bilan uchrashuvlar tashkil etish- 5 ball.

- Har semestrda kamida 2 marotaba ota-onalar bilan yig'ilish (onlayn/offlayn) o'tkazilishi (*talabaning davomati, fanlardan o'zlashtirishi ko'rsatkichi hamda tarbiyaviy holati va boshqa akademik jarayonga taalluqli holatlar bo'yicha*).

- Uchrashuv bo'yicha ishtirokchilar ro'yxati va qisqa bayonnomaning o'z vaqtida rasmiylashtirilishi va tegishli fakultet tomonidan tasdiqlanishi.

2). Axborot yetkazish va ma'lumotnoma taqdim etish – 5 ball.

- Har semestrda kamida 2 marotaba ota-onalarga talabaning davomati, fanlardan o'zlashtirishi ko'rsatkichi hamda tarbiyaviy holati bo'yicha rasmiy ma'lumotnoma berishi va yuborilishi.

Ushbu band bo'yicha tegishli fakultet dekani tomonidan baholanadi.

7. Ijtimoiy himoya va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar — 10 ball.

Mazkur ko'rsatkich Kurs koordinatorining talabalarning ijtimoiy ahvoli, turar joy sharoitlari, ma'naviy-tarbiyaviy rivojlanishi va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan faoliyatini baholaydi.

1) Universitetning ijtimoiy hayotida faol hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni qo'llab-quvvatlash — **6 ballgacha** baholanadi.

Kurs koordinatori Universitetning ilmiy-ijtimoiy hayotida faol bo'lgan, shuningdek Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan (belgilangan toifadagi talabalar), nogironligi bo'lgan, yetim yoki ota-ona qaramog'idan mahrum etilgan, kam ta'minlangan hamda boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj toifadagi talabalarni aniqlaydi, ularning ehtiyojlarini o'rganadi va ularga tegishli yordam choralarini ko'rish yuzasidan fakultet dekaniga asoslantirilgan takliflarni kiritadi. Zarurat tug'ilganda talabalarni universitening tegishli bo'linmalariga yo'naltiradi.

Mazkur bandni baholash uchun tasdiqlangan talabalar ro'yxati, taklif xati yoki tegishli bo'limga yo'naltirilganlik to'g'risidagi qaydlar asos bo'lib xizmat qiladi.

2) Talabalar turar joyi va ijtimoiy holatining monitoringi uchun **4 ball** beriladi. Bunda Kurs koordinatori talabalar istiqomat qilayotgan manzil bo'yicha (TT), ijarada yoki oilasi bilan yashayotganlar) semestr davomida

kamida bir marotaba ma'lumotlarni yangilaydi, ularning ijtimoiy-maishiy sharoitini o'rganadi hamda aniqlangan holatlar bo'yicha fakultet dekaniga tegishli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Mazkur bandni baholash uchun monitoring jadvali yoki yangilangan ro'yxatlar asos sifatida qabul qilinadi.

Ushbu band bo'yicha tegishli fakultet dekani tomonidan baholanadi.

8. Kurs koordinatori tomonidan o'ziga biriktirilgan talabalarning Universitet hududida va dars mashg'ulotlarida o'zini tutishi hamda kiyinish madaniyatiga rioya etilishi muntazam nazorat qilinadi. Agar semestr davomida talabalar tomonidan mazkur me'yorlarga to'liq amal qilingan bo'lsa, kurs koordinatoriga **10 ball** beriladi. Yuqorida qayd etilgan talablarga rioya qilinmagan hollarda esa:

- 3–5 nafar talaba tomonidan me'yorlarning buzilishi **7 ball**;

- 6–8 nafar talaba tomonidan buzilish holatlari **5 ball** bilan baholanadi.

9 nafar va undan ortiq talaba tomonidan belgilangan tartib-qoidalarning buzilishi kuzatilgan taqdirda esa, kurs koordinatoriga ushbu mezon bo'yicha ball berilmaydi.

Izoh: *Ushbu band bo'yicha baholash talabalarning yozma tushuntirish xatlariga asoslangan holda tegishli fakultet dekani tomonidan amalga oshiriladi.*

Ushbu band bo'yicha tegishli fakultet dekani tomonidan baholanadi.

III. Ilmiy-akademik yo'nalish bo'yicha - 15 ball

9. Kurs koordinatorlariga biriktirilgan guruhlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini belgilangan vaqtda hamda tegishli o'quv xonalarida muntazam tashkil etganlik uchun **5 ball**gacha baholanishi mumkin. Dars mashg'ulotlarini asosli sabablar ko'rsatilmadan kech boshlash yoki umuman o'tkazmaslik holatlari aniqlansa ushbu band baholanmaydi.

Kurs koordinatorligiga ajratilgan soatlar doirasida tashkil etilgan dars mashg'ulotlari Akademik sifatni ta'minlash va standartlashtirish ofisi tomonidan baholanadi.

10. Xalqaro impakt faktoriga ega bo'lgan hamda OAK ro'yxatiga kiritilgan ilmiy jurnallarda maqola chop ettirish tartibi va baholash mezonlari: Xalqaro impakt faktoriga ega bo'lgan jurnallarda yoki OAK ro'yxatiga kiritilgan milliy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar quyidagi tartibda baholanadi:

- Xalqaro impakt faktoriga ega bo'lgan bir dona ilmiy maqola uchun **3 ball**;

- OAK ro'yxatiga kiritilgan milliy ilmiy nashrlarda chop etilgan maqola uchun **2 ball**.

Monografiyalarni baholash tartibi: Baholash yilida chop etilgan monografiyalarni inobatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- Monografiyaning asl nusxasi yoki uning 1–5-betlarining elektron PDF shakli;

- Milliy nashrlarda chop etilgan monografiya JIDU Ilmiy Muvofiqlashtirish Kengashi bayonnomasi bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim ofisi tomonidan monografiya quyidagilarga asoslanib baholanadi:

- monografiyaning xalqaro standart kitob raqami (ISBN — International Standard Book Number) mavjudligi;

- ARMga (Axborot-resurs markaziga) monografiyaning kamida ikki dona chop etilgan nusxasi topshirilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma.

Agar ilmiy ish hammualliflikda chop etilgan bo'lsa, ballar mualliflar soniga mutanosib ravishda teng taqsimlanadi.

Monografiyalar faqat bir kalendar yili doirasida baholashga qabul qilinadi. Mazkur toifadagi ilmiy ishlar bo'yicha kurs koordinatori faoliyati maksimal **10 ball** bilan baholanishi mumkin.

Ushbu band bo'yicha Oliy ta'limdan keyingi ta'lim ofisi tomonidan baholanadi.

IV. Ma'naviy-ma'rifiy chora tadbirlar yo'nalishi bo'yicha 25 ball.

11. Kurs koordinatori tomonidan to'garak tashkil etilganligi kesimida baholanadi.

Kurs koordinatori tomonidan to'garak (klub) tashkil etilganligi uning talabalar bilan ma'naviy-tarbiyaviy va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy faoliyati sifatida baholanadi. To'garakning tashkil etilganligi va faoliyati uni tashkil etish to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar, haftalik mashg'ulotlar jadvali hamda ishtirokchilar kontingenti bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

To'garak faoliyati doirasida mashg'ulotlar reja-jadval asosida muntazam o'tkazilishi, ishtirokchilar ro'yxati yuritilishi hamda o'tkazilgan mashg'ulotlar bo'yicha tasdiqlangan hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi lozim. Mazkur hujjatlar to'garak faoliyatining real va tizimli ekanligini tasdiqlovchi asos hisoblanadi.

To'garakning tashkil etilganligi va faoliyati "Besh muhim tashabbus markazi" tomonidan hujjatlar va ishtirokchilar kontingenti asosida baholanadi. Belgilangan talablar to'liq bajarilgan taqdirda Kurs koordinatori ushbu mezon bo'yicha 10 ball bilan baholanadi.

Ushbu band bo'yicha "Besh muhim tashabbus markazi" tomonidan baholanadi.

12. Huquqbuzarlik, giyohvandlik va jinoyatchilikning oldini olish hamda talabalarni profilaktik tadbirlarga jalb etish bo'yicha faollik – 15 ball:

Kurs koordinatori fakultet yoki universitet miqyosida o'tkazilayotgan ma'naviy-tarbiyaviy, sport, madaniy, ilmiy-amaliy yoki ijtimoiy tadbirlarni tashkil etishda yoki ularni amalga oshirishda ishtirok etadi, talabalarning ushbu jarayonlardagi faolligini ta'minlaydi.

Mazkur bandni baholash uchun tadbirlar ro'yxati, ishtirok qaydi yoki mas'ul shaxs/fakultet dekani tomonidan tasdiqlangan ma'lumotlar asoslovchi hujjat hisoblanadi.

a) korrupsiya, giyohvandlik, psixotrop moddalar iste'moli, odam savdosi va boshqa salbiy holatlarning oldini olish yuzasidan targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirgani – 5 ball;

b) talabalarni huquqbuzarlik, giyohvandlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarda ishtirokini ta'minlagani – 5 ball;

c) huquqbuzarlik, intizomsizlik yoki boshqa salbiy xulq-atvorga moyil talabalarga nisbatan muntazam tushuntirish ishlarini olib borgani – 5 ball.

Ushbu band bo'yicha "Besh muhim tashabbus markazi" tomonidan baholanadi.

V. Yakuniy qoidalar.

Kurs koordinatorlari faoliyati samaradorligini baholash (KPI)ning belgilangan mezonlari bo'yicha yuzaga keladigan savollar, shuningdek baholash natijalaridan e'tirozlari bo'lgan kurs koordinatorlari natijalar e'lon qilingan kundan boshlab, 3 (uch) ish kuni davomida universitet rahbariyatiga ariza bilan murojaat kiritishlari mumkin.

Kurs koordinatorlari faoliyati samaradorligini baholash (KPI)

MEZONLARI

T/r	Samaradorlik ko'rsatkichlar	Baholash mexanizmi	To'plash mumkin bo'lgan ball 125	To'plangan ustama haq
I. Boshqaruv faoliyati bo'yicha 40 ball				
1.	Talabalar tomonidan beriladigan fikr va mulohazalar	Talabalar o'rtasida har o'quv yilining semestr yakunlari bo'yicha onlayn so'rovnoma (feedback) natijalari asosida baholanadi	10 ball	
2.	Talabalar murojaatlarini ko'rib chiqish va o'z vaqtida hal etish	Talabalar tomonidan yuzaga kelayotgan savollar va tushunmovchiliklarni o'rganib chiqish hamda tegishli tartibda aniqlik kiritish	10 ball	
3.	Talabalarning akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlarini muntazam o'rganish asosida tahlil qilish	Talabalarning akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha yuzaga kelayotgan muammolarni o'rganib chiqish	10 ball	
4.	Talabalarning Xalqaro va Respublika fan olimpiada va tanlovlaridagi sovrindor bo'lganligi	Respublika fan olimpiada hamda tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan tegishli va mukofot (diplom)larga sazovor bo'lgan talabalar	10 ball	
II. Tashkiliy-funksional majburiyatlar bo'yicha 45 ball				
5.	To'lov-shartnoma hamda qayta o'qish (trimester) to'lovlarning o'z vaqtida	To'lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalarning to'lovlarni o'z vaqtida belgilangan sanalarda to'lab borilishini nazoratga olish:	10 ball	

	amalga oshirilishini nazorat qilib borish	Qayta o'qish (trimester) asnosida tahsil olayotgan talabalarning to'lovlarni o'z vaqtida to'lab borilishini nazorat qilib borish	5 ball	
6.	Talabalarning ota-onalar bilan ishlash faoliyati	Kurs koordinatori tomonidan reja grafik bo'yicha ota-onalar bilan uchrashuvlar tashkil etish <i>(talabalarning fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichi hamda davomatlari asosida)</i>	10 ball	
7.	Talabalarni turar joy bilan ta'minlash va ularning holidan xabar olish holati	Talabalarning yashash manzillari (talabalar turar joylari, ijaradagi yoki xususiy xonadonlar hamda qarindoshlari bilan istiqomat qiluvchi holatlar) bo'yicha muntazam nazorat qilib borish	10 ball	
8.	Talabalarning Universitet odob-axloq me'yorlariga rioya qilishlarini nazorat qilib borish	Talabalarning amaldagi qonunchilik hujjatlari, Universitetning "Odob-axloq kodeksi", ichki tartib-qoidalar va boshqa ichki hujjatlarining tanishtirish va unga rioya qilinishini nazorat qilib borish	10 ball	
III. Ilmiy-akademik yo'nalish bo'yicha (15 ball)				
9.	Kurs koordinatorlariga biriktirilgan dars soatlarini o'z vaqtida belgilangan dars xonalarida tashkil etish	Kurs koordinatorlariga biriktirilgan guruhlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'z vaqtida, shuningdek belgilangan o'quv mavzusi asosida tashkil etish	5 ball	

10.	Akademik va ilmiy yo'nalishlarga doir bo'lgan ish faoliyatlar	Kurs koordinatorlari tomonidan monografiya, o'quv qo'llanma, darsliklar va nufuzli jurnallarda chop etilgan maqolalar ulushida baholanadi	10 ball	
IV. Ma'naviy-ma'rifiy chora tadbirlar yo'nalishi bo'yicha (25 ball)				
11.	Ta'lim muassasalarida o'quv kurslari va to'garak, klublar tashkil etganligi shuningdek ularni faoliyat yuritilish holati	To'garak tashkil etilganligi to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar hamda ishtirokchilar kontingenti (yoki hisobotlari) asosida baholanadi	10 ball	
12.	Talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish	Talabalarni zararli va radikal g'oyalardan himoyalash, ularning huquqiy ongini mustahkamlash hamda jinoyatchilikka qarshi profilaktik faoliyatni takomillashtirish yo'nalishida amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar	15 ball	
V. Ijro intizomi qoidalarining buzilishi				
13.		Kurs koordinatorlik soatlarini muntazam kech boshlash yoki dars mashg'ulotini uzrli sabablarsiz tashkil etmaslik	-10	
14.		Universitetga muntazam ravishda kech kelish yoki ish vaqti tugamasidan avval ish joyini tark etish.	-15	

15.	Ijro intizomi bo'yicha qo'llaniladigan holatlar	Kurs koordinatorlariga biriktirilgan guruhlar kesimida talabalarining Universitet ichki tartib-qoidalarini buzganlik holatlari uchun	-10	
16.		Kurs koordinatorlari tomonidan Universitet ichki tartib-qoidalarini buzish, ijro intizom hamda belgilangan funksional majburiyat va topshiriqlarni bajarmaslik	-20	

